



ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA GAVHARSHODBEGIM OBRAZI: TARIX VA BADIYAT UYG‘UNLIGI

Bazarboyeva Madina Abdulla qizi

*Nukus davlat texnika universiteti Tillar va gumanitar fanlar kafedrası
stajyor-o‘qıtuvchısı*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17703853>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazınası” romanida Gavharshodbegim obrazining badiiy va falsafiy talqini tahlil etiladi. Muallif tarixiy shaxs sifatida Gavharshodbegimning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni, onalik va davlat arboblighi sifatidagi faoliyati, shuningdek, uning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari orqali tarixiy haqiqatni badiiy talqin etgan. Asarda yozuvchi ayol obrazini faqat oilaviy yoki hissiy doirada emas, balki ijtimoiy mas‘uliyat va siyosiy tafakkur darajasida yoritadi. Gavharshodbegim siymosi orqali Odil Yoqubov o‘z davrining murakkab siyosiy jarayonlarini, insoniy qadriyatlarni hamda ayollarning tarixdagi rolini chuqur falsafiy yondashuv asosida ochib beradi. Maqolada obrazning psixologik, metaforik va ramziy qatlamlari ilmiy tahlil qilinadi hamda uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Odil Yoqubov, “Ulug‘bek xazınası”, Gavharshodbegim, tarixiy roman, ayol obrazi, badiiy talqin, psixologik tahlil, falsafiy yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье анализируется художественно-философская интерпретация образа Гавхаршодбегим в романе Одила Йокубова “Сокровище Улугбека”. Автор рассматривает Гавхаршодбегим не только как мать Улугбека, но и как политического деятеля, способного осознавать духовную сущность исторических событий. Через внутренние переживания и психологические состояния героини писатель раскрывает сложные социально-политические процессы своего времени, а также философское осмысление роли женщины в истории. В статье исследуются символические, метафорические и психологические аспекты образа Гавхаршодбегим, что позволяет глубже понять художественную концепцию автора и место героини в узбекской литературе.*

Ключевые слова: *Одил Йокубов, “Сокровище Улугбека”, Гавхаршодбегим, исторический роман, женский образ, художественная интерпретация, психологический анализ, философский подход.*

Abstract: *This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of Gavharshodbegim’s image in Odil Yoqubov’s novel “The Treasure of Ulugbek.” The author depicts Gavharshodbegim not only as Ulugbek’s mother but also as a political figure who comprehends the moral essence of historical processes. Through her inner struggles and psychological experiences, the writer reveals the complex socio-political dynamics of the era and offers a philosophical reflection on the role of women in history. The article explores the symbolic, metaphorical, and psychological layers of Gavharshodbegim’s portrayal, emphasizing her significance within Uzbek literature and historical fiction.*

Keywords: *Odil Yoqubov, “The treasure of Ulugbek”, Gavharshodbegim, historical novel, female image, artistic interpretation, psychological analysis, philosophical approach.*

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazınası” romanida Gavharshodbegim obraziga yondashuv, avvalo, muallifning tarixiy jarayonlarga bo‘lgan munosabati, ularni tahlil qilishdagi falsafiy yondashuvi orqali shakllanadi. Asarda Gavharshodbegimning ishtiroki



ko‘p hollarda syujet markazida bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning mavjudligi va harakatlari voqealar rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holat yozuvchining ayol obrazlariga nisbatan murakkab va nozik yondashuvini ko‘rsatadi. Yoqubov Gavharshodbegimni nafaqat Ulug‘bekning onasi, balki davlat arbobi sifatida ham tasvirlaydi. Bu obrazda ayolning siyosiy ongga ega ekani, jamiyatdagi voqealarga befarq bo‘lmaganligi ko‘rinadi. Tarixiy romanlarda ayol obrazini faqatgina hissiy yoki oilaviy doirada cheklab qo‘yish tendensiyasiga qarshi yozuvchi Gavharshodbegim orqali o‘z fikrini bildiradi. Adabiyotshunos

O. Karimov ta‘kidlaganidek: “Yoqubov tarixiy romanlarida obrazlarning ijtimoiy va siyosiy pozitsiyasi ularning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog‘liq holda yoritiladi. Gavharshodbegim ana shunday murakkab kontekstdagi siymo sifatida e‘tiborni tortadi” [Karimov O. “Tarixiy romanlarda ijtimoiy obrazlar”, 2010]

Asarda Gavharshodbegim siyosiy qarorlarning ma‘naviy mohiyatini tushunadigan ayol sifatida gavdalanadi. U o‘z nevarasi Abdulatifning xatti-harakatlarini tushunishga, uni ogoh qilishga harakat qiladi, biroq bu urinishlar samarasiz kechadi. Bu orqali yozuvchi tarixiy fojiaga olib kelgan ichki va tashqi omillarni ko‘rsatadi.

Gavharshodbegimning siymosi orqali Odil Yoqubov ayollarning tarixdagi rolga zamonaviy nigoh bilan qaraydi. Bu obrazda ayolning iroda, sabr, og‘ir sinovlar oldida sinmaslik fazilatlarini yorqin ifoda etilgan. Ayniqsa, Ulug‘bekning fojiali o‘limidan keyingi ruhiy iztiroblari asarda kuchli psixologik tahlil vositasida ifodalanadi. Tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Gavharshodbegim to‘g‘risida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lumotlar ko‘p emas. Biroq Odil Yoqubov tarixiy tafsilotlar bilan badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirib, bu obrazni zamonaviy o‘quvchiga ta‘sirli va ishonchli qilib tasvirlaydi. Adabiyotshunos Z. Usmonova yozadi: “Yoqubov romanlarida tarixiy obrazlar shunchaki voqealarning ishtirokchisi emas, balki muayyan ijtimoiy va axloqiy g‘oyalarni tashuvchi timsollardir. Gavharshodbegim esa ona, ayol, va davlat arbobi timsolida tarixiy haqiqat va badiiy ifoda uyg‘unligining namunasi” [Usmonova Z., “Tarix va badiiyat”, 2016]

Xulosa qilib aytganda, “Ulug‘bek xazinasini” romanida Gavharshodbegim obrazi voqealarning markazida emasdek tuyulsa-da, uning harakatlari, ichki kechinmalari va o‘z zamonasi uchun tutgan o‘rni orqali chuqur ma‘naviy qatlamlarga ega obraz yaratilgan. Yoqubov tarixiy roman orqali nafaqat tarixiy voqealarni, balki insoniy qadriyatlarni yoritadi.

Gavharshodbegim tarixda Ulug‘bekning onasi, saroyda hurmatli, madaniyat homiysi sifatida tanilgan. Odil Yoqubov bu tarixiy ma‘lumotlarni asos qilib olgan holda, u obrazini badiiy jihatdan chuqurlashtiradi. U saroydagi siyosiy kurashlarda bevosita



ishtirok etadi, Ulug‘bek faoliyatiga ma‘naviy tayanch bo‘ladi, davr ruhini his etgan donishmand ayol sifatida gavdalanadi. Romanda Gavharshodbegimga nisbatan ko‘plab ramziy va metaforik ifodalar ishlatilgan. U “moviy osmon ostidagi yulduz”, “ilmlarning nuri”, “sabr va iymon ramzi” kabi badiiy iboralar orqali yuksak darajadagi ayol timsoliga aylantirilgan. Bu uslub orqali muallif uni o‘z zamonasining go‘zallik, donolik, va sadoqat timsoli sifatida talqin qiladi. Gavharshodbegim obrazida ayollarning faqat oilaviy doirada emas, balki siyosiy maydonda ham faol bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatiladi. U ba‘zida Ulug‘bekka maslahatchi, ba‘zida ogohlantiruvchi, ba‘zida esa qalb og‘riqlarini ichiga yutgan matonatli ona sifatida namoyon bo‘ladi. U Ulug‘bekni fitnalardan himoya qilishga urinadi, lekin zamonaning murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bunga to‘sqinlik qiladi. Gavharshodbegim obrazi roman voqealari davomida keskin psixologik o‘zgarishlarga uchraydi. Nevarasi Abdulatifning xiyonati, Ulug‘bekning fojiali o‘limi, saroydagi murosasizlik va iztiroblar uning ruhiy holatiga chuqur ta‘sir ko‘rsatadi. Muallif bu iztiroblarni ichki monologlar, tasviriy vositalar orqali yoritadi va uni dramatik kuchga ega obrazga aylantiradi. “Ulug‘bek xazinasi” romanida Gavharshodbegim obrazi o‘zbek adabiyotidagi eng yorqin tarixiy-badiiy ayol obrazlaridan biridir. U tarixiy haqiqat bilan badiiy to‘qimaning uyg‘unlashuvi natijasida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitida faol, dono, fidoiy ayol sifatida gavdalanadi. Muallif uning timsoliga nafaqat tarixiy obraz, balki ayol kuchi, ma‘naviyati va irodasining ramzi sifatida qaraydi. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy shaxslar, ularning ichki dunyosi va siyosiy faoliyati chuqur badiiy tahlil etiladi. Asarda markaziy o‘rin tutgan obrazlardan biri – Gavharshodbegim bo‘lib, muallif uni faqat tarixiy voqealarning ishtirokchisi sifatida emas, balki onalik, vijdon, siyosiy mas‘uliyat va insoniylik kabi murakkab kechinmalar sohibasi tarzida yoritadi. Bu asarda Gavharshodbegim obrazi avvalgi talqinlardagi salbiy, fitnagarona tusdan farqli ravishda, yanada chuqurroq, insoniy tusda tasvirlanadi. U bir tomondan, davlat tebranishining oldini olishga harakat qilayotgan dono malikaxon, ikkinchi tomondan esa farzandi – Mirzo Ulug‘bekning taqdiri bilan bo‘lgan ichki kurashlarda iztirob chekayotgan mehribon ona sifatida gavdalanadi. Roman voqealarida Gavharshodbegim ko‘proq tahliliy holatda, ichki monologlar va boshqa qahramonlarning fikrlari orqali ochiladi. U har bir harakatini siyosiy vaziyat, davlat manfaatlari va o‘z o‘g‘lining taqdiri o‘rtasida muvozanat saqlashga urinib qiladi. Shu bois asarda u keskin salbiy obraz sifatida emas, balki tarixning murakkab ijtimoiy-siyosiy holatida yashagan va shu muhit taqozosiga ko‘ra qattiq qarorlar qabul qilgan ayol timsolida talqin etiladi. Gavharshodbegimning Ulug‘bekka bo‘lgan munosabati romanda o‘ta ziddiyatli, ammo tub mohiyatda ona mehridan tug‘ilgan. U o‘g‘lini ilm-fan yo‘lini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, ayni paytda davlatning barqarorligi yo‘lida uning haddan tashqari erkin



qarashlaridan xavotirda bo‘ladi. Ulamolar bilan ziddiyat, sayidlarning noroziligi, davlat tebranishi – bularning barchasini u o‘g‘lining haddan ziyod ilmparastligi bilan bog‘laydi. Shu nuqtai nazardan, Gavharshodbegimning harakati muallif tomonidan bir yoqlama baholanmaydi; aksincha, murakkab ijtimoiy jarayonlar kontekstida ko‘riladi. Muallif obrazga baho berishda izchil betaraflikni saqlaydi. Gavharshodbegim nafaqat siyosiy arbob, balki ayol, ona, xalq dardi bilan yashayotgan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. U o‘z qarorlarining oqibatidan tashvishda, biroq bu tashvish orqasida o‘zini emas, o‘g‘lini o‘ylaydi. Shunday qilib, asarda Gavharshodbegim — tarixga befarq bo‘lmagan, o‘z qadriyatlarini siyosiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishga urinayotgan, ammo doim ham muvaffaq bo‘lavermaydigan ayol siymosidir. Muallif Gavharshodbegim timsolida tarixdagi ko‘p qirrali ayol siymosini yaratishga erishgan. U qahramonni na ulug‘laydi, na qoralaydi. Aksincha, uni o‘z zamonasi bilan, uning ijtimoiy-siyosiy muhitidagi o‘rni bilan baholaydi. Bu esa asarning badiiy qimmatini oshiradi, obrazning tabiiyligini ta‘minlaydi. Umuman olganda, Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida Gavharshodbegimni nafaqat siyosiy arbob, balki ichki iztiroblarga boy, tarixiy jarayonlarda og‘ir tanlovlar qarshisida turgan ayol sifatida tasvirlaydi. Uning obrazidagi murakkablik, ziddiyatlar, onalik va siyosat o‘rtasidagi kurash romandagi badiiy konfliktni yanada chuqurlashtiradi va tarixiy obrazga hayotiylik baxsh etadi.

“Ha! Bu mash‘um Xuroson yurishi uning boshiga ko‘p savdolar soldi. Boshda uni bu yurishga da‘vat etgan amirlar esa zafariyatsiz urushdan keyin undan yuz o‘girib, zimdan choh qazish payiga tushdilar. Lekin ne chora? Otasi Shohruh Mirzo vafotidan so‘ng – pokiza ruhi ravzai rizvonda masrur bo‘lg‘ay! – Volidayi mehriboni Gavharshodbegimning kirdikorlari tufayli Hirot saroyida nizo-nifoq avj olib, beqiyos saltanat xavf ostida qoldi Mirzo Ulug‘bek ko‘zini yumib, boshini sekin chayqadi. U volidayi mehriboniga nisbatan ko‘nglida iliq bir tuyg‘u uyg‘otishga harakat qildi. Lekin ko‘z oldiga uzun bo‘yli, ko‘k ipakdan keng ko‘ylak kiyib, boshiga ko‘k ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog‘ bir xotin keldi. U qosh-ko‘zlari qop-qora, qiyg‘ir burun, xushsurat xotin bo‘lsa ham, farishtasi yo‘q, chehrasi sovuq ayol edi. Bobosi Amir Temur Ko‘ragoniy shahodat sharobini ichgandan beri Gavharshodbegim bu kiyimni, ko‘k ipak ko‘ylagi bilan ko‘k ro‘molini tashlamas, go‘yo sohibqiron uchun to o‘lguncha motam tutgan, shu bilan bu dunyo ishlaridan qo‘l yuvib, u dunyo g‘amiga o‘tgan edi. Hayhot! Amir Temur Ollo rahmatiga yo‘l tutib, Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o‘tiribdi hamki, Gavharshod begim toj-u taxtni o‘z qo‘liga oldi. Saroyni johil gumrohlar ila Xoqoni Saidni ko‘rolmaydigan badxohlarga to‘ldirib yubordi. Hirot fisqi fujur uyasiga aylandi. Shohruh Mirzoni chalg‘itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodalar orasiga nizo tushirgan, suyuqli nabirasi Alouddavla bilan Abdullatifni bir-biriga qayrab



solib qatl-u qirg‘in chiqargan ham, evoh, shu volidayi mehriboni Gavharshodbegim bo‘ldi... Bu fitna-yu xunxorliklardan ish chiqmagach, o‘z o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekka “shohi sharir” degan nom taqib, shahzoda Abdullatifni qayrab soldi. Shahzoda esa... Naqshbandiyalar jamoasining rahnamosi janob Nizomiddin Xomush yanglig‘ din peshvolarining domiga ilinib qoldi. O, xurofot botqog‘iga botib qolgan bu johil ulamolar! Ilgari, Mirzo Ulug‘bek taxtda muqim o‘tirgan mahalda ular tishlarini tishlariga qo‘yib bo‘lsa ham chidab yurishgan edi. Lekin Mirzo Ulug‘bek Xuroson yurishidan mag‘lub qaytdi hamki, darhol bosh ko‘tarib chiqishdi. Mirzo Ulug‘bek inongan lashkarboshilar esa... Yuksak rutba, shon-shavkat va zeb-ziynatga o‘ch bu amiru umaro esa... faqat taxt sohibi kuchda turgan mahaldayoq qo‘l qovushtirib turadi. Saltanat sal tebransa, darhol yuz o‘giradi. Kimningki qilichi o‘tkir – ular shunga xizmat qiladi!” [Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinası “Nodirabegim nashriyoti T-2024 B-23]

Bu tasvirida Gavharshodbegim an‘anaviy “mehribon ona”, “oqila malikaxon” obrazidan butunlay farq qiladi. U fitnakor, makkor va hokimiyatparast ayol sifatida gavdalanadi. Unga nisbatan ishlatilgan frazalar — “fitna-yu xunxorliklardan ish chiqmagach”, “taxtni o‘z qo‘liga oldi”, “badxohlarga to‘ldirib yubordi” — barchasi Gavharshodbegimni siyosiy intriganing markazida turgan shaxs sifatida ifodalaydi.

Muallif Gavharshodbegimning tashqi ko‘rinishini juda batafsil tasvirlaydi: “uzun bo‘yli, ko‘k ipakdan keng ko‘ylak kiyib, boshiga ko‘k ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi tushmaydigan”. Bu holat uni dindor, sadoqatli, sokin va hurmatli ayol sifatida ko‘rsatadigandek tuyuladi. Biroq ichki mohiyati butunlay boshqacha: muallif uni chehrasi sovuq, farishtasi yo‘q, salobatli, ammo rahmsiz ayol sifatida tasvirlaydi. Bu esa tashqi va ichki ziddiyat orqali obrazni yanada murakkablashtiradi. Parchada Gavharshodbegim faqatgina oila a‘zosi sifatida emas, balki davlat siyosatiga bevosita aralashadigan kuchli arbob sifatida aks ettirilgan. U Hirotdagi saroy hayotini to‘liq boshqaradi, “Shohruh Mirzoni chalg‘itib, sayidlarni qatl qildirgan”, “shahzodalar orasiga nizo tushirgan”, “saltanat xavf ostida qoldi” kabi iboralar orqali u hukmronlik qiluvchi kuch sifatida taqdim etiladi. Bu esa tarixiy haqiqatga ham muayyan darajada mos tushadi: Gavharshodbegim o‘z davrida siyosiy jarayonlarga faol aralashgan shaxs bo‘lgan. Bu tasvirda ayol kishi hokimiyat tepasiga chiqqanda, u muruvvat emas, fitna va kuch orqali boshqarishga urinadi, degan tushuncha ilgari surilgan. Gavharshodbegim o‘z o‘g‘liga qarshi chiqqani, nabiralari orasida adovat tarqatgani, Ulug‘bekka “shohi sharir” degan nom taqib, Abdullatifni unga qarshi qayragani — bularning barchasi unga nisbatan keskin, salbiy munosabatni ochiq ifodalaydi. Muallifning uslubi sezilarli darajada istehzo va kinoyaga boy: “volidayi mehriboni”, “go‘yo motam tutgan”, “bu dunyo ishlaridan qo‘l yuvib” kabi iboralar orqasida aslida salbiy mazmun yashiringan. Bu badiiy usul



Gavharshodbegim obraziga yana bir murakkablik darajasini qo‘shadi — u tashqi diniy ko‘rinish ortida siyosiy manipulyatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxs sifatida ko‘rsatiladi.

Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasini” romanida Gavharshodbegim obrazi har tarafdin murakkab va ichki ziddiyatlarga boy obraz bo‘lib, uning asardagi ishtiroki ayriqcha ahamiyatga ega, har qanday o‘quvchida qiziqish uyg‘ota oladi.

Adabiyotlar:

1. Abdug‘aniyeva M. Ayol timsolining ijtimoiy-falsafiy mazmuni. // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 78–84.
2. Avezova G. Tarix va badiiyat uyg‘unligi masalalari. – Nukus: QDU nashriyoti, 2020.
3. Islomov S. Tarixiy romanlarda psixologik tahlilning badiiy funksiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
4. Karimov O. Tarixiy romanlarda obraz talqini masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
5. Rajabov H. O‘zbek tarixiy romanlari poetikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2007.
6. Rasulov R. O‘zbek tarixiy nasrida ayol obrazining zamonaviy talqini. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2023.
7. Usmonova Z. O‘zbek tarixiy nasrida ayol obrazi evolyutsiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
8. Yoqubov, O. Ulug‘bek xazinasini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983.